

## FAN OLIMPIADASI ko'ngildagidek o'tdi

Bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida Respublika Fan olimpiadalarining 2-bosqichi yuqori tayyorgarliklar va e'tibor bilan o'tkazilmoqda. Ayni shunday jarayon Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida 2019-yil 15-16-may kunlari "AGROSANOAT MAJMUASI IQTISODIYOTI" fanidan o'takazildi. Dastlab, 15-may kuni ro'yxatga olish ishlari va Respublika Fan olimpiadasi ochilish tadbiri bo'lib o'tdi.

Respublika fan olimpiadasining ochilish tadbirida «Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» fakulteti dekani Z.Muqimov so'zga chiqib, institutimizga tashrif buyurgan mehmon professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlarni samimiy tabrikladi hamda omad tiladi. Jami Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalaridan sohaga oid 10 ta talaba 1-bosqichdan muvaffaqiyatli o'tib, 15-may kuni 2-bosqichda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tdi. Respublika fan olimpiadasidasining 1-kuni yozma ish, test sinovi hamda 2-kuni masalalar yechish(amaliy mashg'ulot), og'zaki savollarga javob yo'nalishlarida shaffof, adolatli, kameralar kuzatuv asosida olib borildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, 3-o'rinni Samarqand Vetirenariya-Meditsina instituti 4-bosqich talabasi Utamurodov Ma'murjon Mansurjon o'g'li, 2-o'rinni Toshkent davlat agrar universiteti Andijon filiali 4-bosqich talabasi Abdullayev Muslimjon Luqmonjon o'g'li, 1-o'rinni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti 3 bosqich 1 guruh talabasi Yo'ldoshboyev Baxtiyor Barot o'g'li egalladi. G'olib bo'lgan hamda ishtirokchi talaba-yoshlar va ularning ustozlariga institut rektorining faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi. Barcha ishtirokchilarga va tashkiliy ishlarda yaqindan yordam bergan ishchi guruh a'zolari hamda institut rahbariyatiga, institut kasaba uyushmasi qo'mitasiga minnatdorchiilik bildiramiz.



Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi A.Berdimurodov axboroti  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov